

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 169 (1230), 2024-yil 23-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



OZARBAYJON RESPUBLIKASI PREZIDENTI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev rafiqasi bilan birga 22-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent shahri xalqaro aeroportida ularni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarilib, faxriy qorovul saf tordirdi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon — ikki qardosh xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalar hamma davrlarda ham juda iliq bo‘lgan. Bu munosabatlarning ildizi teranligi haqida o‘ylar ekansiz, xalqimizning bir dono gapi yodga tushadi. Do‘stlikning eskisi, turfa sinovlardan og‘ishmay o‘tgan yaxshi, deydi yoshi ulug‘larimiz.

Bugun tarixiy birdamlik va qardoshlik munosabatlari yanada rivojlanib, yangi darajaga ko‘tarildi. Bunga keyingi yillarda ikki davlat yetakchilarining hamfikrliklari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yanada jonlantirib yubordi. Bu aloqalar esa o‘rtadagi hamkorlik hamda strategik sheriklikni rivojlantirib, belgilangan marralarga tezroq erishishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Toshkent shahriga kelgach, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri hamrohligida Haydar Aliyev yodgorligi majmuasiga bordi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan mazkur majmua Ozarbayjon Prezidentining 2022-yil iyun oyidagi mamlakatimizga tashrifi chog‘ida ochilgan edi.

Oliy martabali mehmon yodgorlik poyiga gul qo‘yib, atoqli siyosiy va davlat arbobi, mustaqil Ozarbayjonning asoschisi Haydar Aliyev xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shundan so‘ng Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asosida Ozarbayjon Respublikasi delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me‘moriy yechimlari haqida ma‘lumot berildi.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i va Mustaqillik monumenti istiqbolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan.

Uch ming yildan ziyod davr — ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e‘tibor qaratgan kishi mana shu zalvarli o‘tmishning badiiy ifodasiga guvoh bo‘ladi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrifi doirasida bu yerdagi monumentga gul qo‘yish an‘anaga aylangan.

Delegatsiya a‘zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimizning siymolariga alohida e‘tibor qaratdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 23-avgust kuni bo‘lib o‘tadi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari raisligida oliy darajadagi muzokaralar va Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Prezidentlar ikki mamlakat biznesi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazishi, qator ishbilarmonlik va madaniy tadbirlarda ishtirok etishi ham ko‘zda tutilgan.

Z.JONIBEKOV,
I.AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

Munosabat



TADBIRKORLIK XALQ ORASIDA OMMALASHAYOTGAN KATTA TARMOQQA AYLANYAPTI

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti yangi bir milliy institut, dunyo tajribasida deyarli o‘xshashi yo‘q mexanizmga aylangani Nukus muloqotida yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Prezidentimizning biznes vakillari bilan o‘tadigan uchrashuvi shunchaki muloqotga asoslanmaydi, balki sohadagi muammolar o‘rtaga tashlanib, aniq yechimlar beriladi. Masalan, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan ilk ochiq muloqot natijalari bo‘yicha 57 ta, 2022-yilda

55 ta, o‘tgan yili esa 56 ta tashabbus ilgari surilib, ijobiy yechimini topdi.

Muhimi, bugun tadbirkor davlat himoyasida ekaniga va faoliyatiga hech kim aralasha olmasligiga ishonadi. Bu ishonchning huquqiy asoslari tegishli qonunlarda aksini

topayotgani barqaror iqtisodiy o‘shish va rivojlanishga intilayotgan O‘zbekiston tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish borasida salmoqli qadamlar qo‘yayotganini anglatadi.

Davomi 4-betda



Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning 22-avgust kuni O‘zbekistonga boshlangan tashrifi arafasida ushbu mamlakatning yetakchi “Trend” xalqaro axborot agentligi “Ozarbayjon va O‘zbekiston ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlamoqda — yangi iqtisodiy imkoniyatlar” sarlavhali maqolani tarqatdi.

BOKU VA TOSHKENT O‘RTASIDA ALLAQACHON MUSTAHKAM STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI O‘RNATILGAN

“So‘nggi yillarda Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat do‘stona va yaxshi qo‘shnichilik, balki chinakam strategik munosabatlarga aylandi, — deb ta‘kidlangan nashrda. — Global o‘zgarishlar Ozarbayjon va uning Kaspiy dengizi orqali o‘tgan qo‘shnilarining

turli sohalarda hamkorlikda faollashishiga olib keldi. Bu bir so‘z bilan aytganda, strategik sheriklik emas, qit‘a ahamiyatiga ega real iqtisodiy loyihalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi”.

Davomi 2-betda

ARALASH SAYLOV TIZIMI

UNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING ZARURATI HAMDA AHAMIYATI

Mamlakatimizda barcha sohalarda ulkan o‘zgarish va yangilanishlar, strategik islohotlar amalga oshirilayotgan jarayonda aholi turmush tarzi yaxshilanishi bilan bir qatorda, ularning huquqiy savodxonligi va siyosiy madaniyati ham tobora ortib bormoqda.

Buning yaqqol dalili sifatida muallifi xalqimizning o‘zi bo‘lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi, uning asosida bir qator strategik hujjatlar, xususan, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi yuzasidan qabul qilingan Prezident farmonlarining ijroga qaratilgani hozirgi islohotlar jarayonida muhim va ayni vaqtda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davomi 3-betda

BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

2021-yil 13-avgust. Prezident Shavkat Mirziyoyev Tokiodagi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan sportchilar, ularning ota-onalari va murabbiylari bilan uchrashuvda shunday degan edi: “Parijda bo‘lib o‘tadigan navbatdagi yozgi Olimpiadada medallar bo‘yicha yetakchi 15 ta mamlakat qatoridan joy olish uchun hamma imkoniyatlarimiz bor!”.

MAQSAD TO‘G‘RI QO‘YILSA, ALBATTA, NATIJA BO‘LADI



2024-yil 11-avgust. Fransiya poytaxti Parij shahrida o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarining so‘nggi kuni. “O‘zbekiston sportchilari medallar jang‘arish bo‘yicha Top-15 talikka kirdi”, degan xabarlar butun olamni tutdi.

Bu mamlakatimizning Olimpiya o‘yinlaridagi tarixiy natijasidir. Sportchilarimiz to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasida o‘z rekordini yangiladi. Musobaqada erishilgan natijaning tarixiyligi shundaki, mamlakatimiz sportchilari

“Parij — 2024” Olimpiadasida dunyo bo‘yicha 13-, Osiyoda 4-, MDH, Markaziy Osiyo, turkiy, musulmon davlatlar orasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Erishilgan natijalar va oldinda turgan rejalar haqida O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Bosh kotibi Oybek QOSIMOV bilan suhbatlashdik.

Davomi 5-betda

XONADONDAN DAVLATGA SOTILAYOTGAN ELEKTR ENERGIYASI

ODAMLAR BU SOHADAN FOYDA
KO‘RISHGA HARAKAT QILMOQDA



2

O'ZBEKISTON — OZARBAYJON BIZNES FORUMI

Ozərbayjan Respublikası Prezidenti İlham Aliyevning mamlakatimizga davlat tashrifi arafasida poytaxtimizdagi "O'zeksposmarkaz" milliy ko'rgazmalar majmuasida O'zbekiston — Ozərbayjan biznes forumi bo'lib o'tdi.



Vazirlik, idora, tarmoq birlashmalari, hududlar hokimliklari hamda ikki mamlakat ishbiarmon doira vakillari ishtirok etgan anjumaning ochilishida investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov ikki davlat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli hamkorlik strategik xususiyat kasb etib, sifat jihatidan yangi bosqichga chiqqanini ta'kidladi.

O'zaro tovar ayirboshlash miqdori oshmoqda va diversifikatsiya qilinmoqda, — dedi L.Qudratov. — Bugun hukumatlar darajasida import o'rmini bosuvchi dasturlarni amalga oshirish, jumladan, hududlarda tovarlarni maxsus elektron platformalarga joylashtirish orqali mamlakatlarimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ko'proq sotishga ko'maklashuvchi infratuzilma yaratish masalasini muhokama qilyapmiz. Shaharlarimizda savdo uyi, ko'rgazma zali, doimiy milliy pavilyonlar oshish rejasini bu yo'ldagi aniq qadamlar sifatida qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, sanoat kooperatsiyasini jadal rivojlantirish niyatidamiz. Investitsiya kompaniyasi faol ishlayapti. Fursatdan foydalanib, tadbirkorlarni qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun ushbu platforma imkoniyatidan kengroq foydalanishga chaqiramiz.

Forumda ko'p qirrali O'zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi jadal rivojlanayotgani qayd etildi — tovar aylanmasi oxirgi 5 yilda 3 barobar, joriy yil boshidan buyon esa yana 20 foiz oshgan.

Davlat rahbarlari tomonidan qo'yilgan vazifa — yaqin kelajakda mamlakat ayirboshlash miqdorini 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha ish olib borilyapti.

Tahsilarga ko'ra, iqtisodiyotning eng ustuvor tarmoqlari — energetika va shaharsozlik, mashinasozlik, to'qimachilik va ipakchilik, qishloq xo'jaligida sarmoyaviy hamkorlik ko'lami kengaymoqda. Respublikamizda "Pasha Holding", "Matanar", "Sarda Group" va "Sokar" kabi Ozarbayjonning yirik kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonning "Global Textile", "Azsilk" va "Business" korxonalarida Ozarbayjon hududlarida ishlayapti.

Investitsiyaviy hamkorlikni harakatlantiruvchi kuch — Qo'shma investitsiya kompaniyasi ishga tushirilgani e'tirof etildi.

O'z navbatida, Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikail Jabborov yurtimizda yaratilgan sarmoyaviy muhit, tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni yuksak baholadi. Uzoq muddatli hamkorlikka ishonch bildirgan holda, Ozarbayjon biznesi vakillarini ikkilanmasdan O'zbekistonga sarmoya kiritishga chorladi.

Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari qayd etildi. Yengil va oziq-ovqat sanoati, yashil energetika, sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarida aniq loyihalar portfeli

shakllantirildi. Qurilish materiallari yetkazib berish hajmini oshirish, talabgir mahsulotlarni samarali rag'batlantirish uchun har ikki tomonda tarmoq birlashmalari vakillari uchun lavozimlar tashkil etish zarurligi ma'qullandi.

Asosiy maqsadimiz hamkor davlatlar o'rtasida sifatli mahsulotlar almashinuvini tashkil qilish, — dedi Ozarbayjondagi O'zbekiston savdo uyi asoschisi Ramin Sharifov. — Hozir o'ndan ziyod yo'nalishda faoliyat ko'rsatyapmiz. Yurtimizda turli sohaga ixtisoslashgan 50 ga yaqin O'zbekiston biznesi vakillari mahsulotlari ko'rgazmasini o'tkazdiz. Yaqin kunlarda Birlashgan Arab Amirliklarida ham O'zbekiston savdo uyi ochishni rejalashtirganmiz.

Yig'ilish chog'ida to'qimachilik, ipakchilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat va tog'-kon sanoati, shaharsozlik, infratuzilma va zamonaviy turar joy, savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha keng imkoniyat mavjudligi ta'kidlandi. Tog'-kon, energetika va neft-gaz sanoatida qo'shma loyihalar ishlab chiqish, "yashil" energiya manbalari yaratish va mahsulot eksport qilish, qishloq xo'jaligida hamkorlikni kengaytirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Dasturga muvofiq, infratuzilmani rivojlantirish va shahar qurilishi, yangi logistika markazlari, ta'lim muassasalari, hamkor mamlakatlarda sanoat birlashmalari vakolatxonalarini ochish bo'yicha ikki tomonlama hujjatlar almashish marosimi bo'lib o'tdi. B2B va G2B muzokaralari tadbirkorlar o'rtasida qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini muhokama qilish uchun qulay platforma vazifasini o'tadi. Forum yakunida amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilgan tadbirlar aks etgan qo'shma "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

Anjuman doirasida "Made in Azerbaijan" milliy mahsulotlar namoyishi ham o'tkazilmoqda. Ko'rgazma mamlakatimiz tadbirkorlarida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Behruz XUDOYBERDIYEV, O'ZA muxbiri

BOKU VA TOSHKENT O'RTASIDA ALLAQACHON MUSTAHKAM STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI O'RNATILGAN

Boshlanishi 1-betda

Maqola muallifi O'zbekistonni bunga eng yaxshi misol sifatida qayd etgan. Rasmiy Boku va Toshkent o'rtasida allaqachon mustahkam strategik sheriklik mavjud, ikki tomonlama hamkorlikning har bir jihati ularning munosabatlari doirasida muhim ahamiyatga ega. Ikki davlat o'rtasidagi

"O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratov joriy yilda ikki davlat qo'shma onlayn tijorat platformasini yaratishni rejalashtirayotganini ma'lum qildi. Ushbu platforma har ikki davlat biznesiga savdo operatsiyalarini osonlashtirish va qo'shma investitsiya loyihalari boshlash imkonini beradi. Ushbu onlayn platformani ishga tushirish

O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Oliy davlatlararo kengashni tashkil etish to'g'risida"gi shartnoma imzolanganini ma'lum qilgan.

Materialda ikki mamlakatning yetakchi energetika korporatsiyalari — SOCAR va "O'zbekneftgaz" o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish uchun faol ish olib borayotgani haqida ham xabar qilingan. 2023-yilda ular gaz savdosiga ixtisoslashgan qo'shma korxonani muvaffaqiyatli tashkil etdi. Shuningdek, "O'zbekneftgaz"ning Ozarbayjonda gaz qazib olish loyihalarida ishtirok etishi bo'yicha muzokaralari yakunini bosqichda.

"Albatta, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik an'anaviy energetika resurslaridan ham oshib ketadi. Muqobil energiyaga o'tish muhimligini angalagan holda, Boku va Toshkent o'z energiya tizimlariga "yashil" texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha faol ishlamoqda, — deya davom etadi muallif. — Ozarbayjon, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida "yashil" energiyani uzatish bo'yicha uch tomonlama kelishuv yaqinda erishilgan eng muhim yutuqlardan biridir".

Asosiy transport yo'nalishlarida joylashgan Ozarbayjon va O'zbekiston bu borada faol hamkorlik qilmoqda, deb ta'kidlagan.

Maqola yakunida "Ozarbayjon va uning yaqin hamkori O'zbekiston o'rtasidagi joriy va kelgusi qo'shma tashabbuslar yangi transport loyihalarini amalga oshirish, energetika loyihalarini rivojlantirish va umuman, infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan. Ushbu sa'y-harakatlar muntazam taqdimatlar tomonlarga foyda keltiradigan o'zaro hamkorlik markaziga aylantirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu loyihalar hududlararo aloqalarni mustahkamlash va istiqbolli dasturlarni yaratish uchun yangi imkoniyat ochadi", deb yozadi "Trend".

"Dunyo" AA Boku shahri



muntazam o'lar darajadagi uchrashuvlar o'zaro aloqalar chuqurligini ta'kidlaydi.

Nashrdan, shuningdek, Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi yaqin iqtisodiy hamkorlikning asosiy jihatlari alohida urg'u berilgan.

Qayd etilishicha, 2023-yilda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida 500 million dollarlik investitsiya jamg'armasini tashkil etish bo'yicha ikki tomonlama bitim imzolangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Bokuga so'nggi tashrifi chog'ida har ikki tomon jamg'arma kapitalini oshirishga kelishib olgan edi.

Ozarbayjon va O'zbekiston tadbirkorlarga munosib sheriklar topish va savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun qimmatli vositani taqdim etishni maqsad qilgan", deb ta'kidlagan axborot agentligi.

Bundan tashqari, maqolada iyul oyida Ozarbayjon — O'zbekiston hukumatlararo komissiyasining 13-yig'ilishida o'zbek o'zaro hamkorligini mustahkamlash bo'yicha yakunini bayonnomasi, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil avgust oyida Bokuga buyurgan tashrifi chog'ida "Ozarbayjon Respublikasi va

Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik

Adabiyot xalqlarni yaqinlashtiradigan eng samarali vositalardan biri. Ko'ngildoshlik bevosita uzoq va ishonchli hamkorlikka zamin yaratadi. "Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik" tamoyiliga amal qilinayotgani natijasida milliy adabiyotimiz anchayin tarjima asarlar bilan boyidi.

"O'ZBEK TILI ONA SUTI BILAN QALBIMGA SINGGAN"

Bugun ana shunday yetuk asarlar qatoriga Qirg'iziston xalq yozuvchisi, TURKSOY tashkiloti bosh kotibi Sulton Rayevning "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan "Tanlangan asarlar" kitobi ham qo'shildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan kitobdan adibning "To'fon" romani, "Quyosh tutilgan kunda" qissasi, beshta sahna asari, o'naga yaqin hikoyasi joy olgan. Asarlarni Ahmadjon Meliboyev, Zuhridin Isomiddinov, Jabbor Eshonqul, Avliyoxon Eshon, Dilfuza Qarshiboyeva, Hilola Abdusalomova, Erkin Boynazarov, Abdug'ani Abdug'afurov kabi adib va tarjimonlar ona tilimizga o'g'irgan.

Taqdimot tadbiri tom ma'noda do'stlik tarannum etgan adabiyot bayramiga aylandi. Tadbirda so'z olganlar Sulton Rayev qirg'iz elining Chingiz Aytmatovdek yana bir sevimli farzandi ekanini, yozganlari ham buyuk adib asarlarini eslatishini alohida ta'kidladi. — Sulton Rayev birgina qirg'iz elining yoki turkiy xalqlarning adibi emas, u dunyoning global miqyosidagi yozuvchisidir, — dedi Prezident maslahatchisi — Spichrayter Xayridin Sultonov. — Zero, bugungi xavortirli, tahlikali davrda so'z aytish, ijod qilish ijodkordan nihoyatda keng dunyoqarash, ulkan iste'dod va mahorat, mas'uliyat, kerak bo'lsa, fidoyilikni talab qilyapti. Adib asarlarini kuzatir ekansiz, unda mana shu jihatlarning bari mujassam ekanini ko'rasiz. Shuningdek, g'oyaviy maqsad va badiiy ifodaning naqadar tiniq va ravshan ekaniga guvoh bo'lasiz.

Darhaqiqat, Sulton Rayevning "Jazo" romani adibga dunyo miqyosida shuhrat keltirgan. Mazkur asar 2015-yili Buyuk Britaniyaning London shahrida rus tilida nashr etilib, bir qancha xalqaro ijodiy tashkilotlar mukofotiga sazovor bo'lgan. Markaziy Osiyo PEN-klubi tomonidan "Yilning eng yaxshi romani", deya e'tirof etilgan.

Taniqli yozuvchi Koreya Respublikasining "Deniel", Rossiyaning Lomonosov, Turkiyaning Otaturk xalqaro mukofotlari, Xalqaro madaniyat va san'at akademiyasi ordeni va boshqa qator mukofotlar bilan taqdirlangan. Sulton Rayev asarlari asosida Qirg'iziston va qo'shni mamlakatlar teatrlarida sahnalashtirilgan "Eh, qizlar", "Malikaning ko'z yoshlari", "Dubal", "Ayol", "Tayammum", "Is'hoq Razzoqov", "Barsbek" dramalari tomoshabin va mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan. U



qirg'iz kinoijodkorlari suratga olgan "Ikkovlon", "Qurbonjon dodho", "Shahar" badiiy filmlari senariyi muallifi hamdir. Adibning asarlari, shuningdek, ingliz, turk, rus, xitoy, ukrain, qozoq, ozarbayjon tillariga tarjima qilingan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid yozuvchi Sulton Rayevning turkiy davlatlar adabiy hamkorligini mustahkamlash yo'lidagi mehnatlarini alohida e'tirof etdi: "Keyingi yillarda Sulton Rayev tashabbusi bilan Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Ozarbayjonda o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini o'rganishga bag'ishlangan qator xalqaro tadbirlar o'tkazildi. 2023-yili Navoiy viloyatida "Mumtoz she'riyat" xalqaro adabiy anjumani, 2024-yilda Buxoroda turkiy tili davlatlar yosh ijodkorlari forumi yuqori saviyada uyushtirishda uning munosib xizmatlari bor. Shu bois, biz uni haqiqiy ma'noda o'zbek farzandi deb bilamiz".

Tadбир yakunida qirg'iz adibi kitobning dunyoga kelishiga hissa qo'shganlarga minnatdorlik bildirdi: "Bugun men uchun eng quvonchli kun. Sababi, kitobim Alisher Navoiy tilida ilk mara chop etildi. Men qirg'iz tilini ham, o'zbek tilini ham birdek yaxshi ko'raman. O'zbek tili ona suti bilan qalbimga singgan. O'zbeklar orasida uyg'aydim. Shunday ekan, Qirg'izistonni qanchalik yaxshi ko'rsam, O'zbekistonga ham

mehrim shunchalik baland. Bugun O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoning eng buyuk davlatlari bilan belbasha olishini namoyon etyapti. Mamlakatdagi islohotlar ko'lamini tasavvur qilish qiyin. Adabiyotga, san'atga, madaniyatga e'tibor juda yuksak. Mazkur sohalarida nimaiki yutuqlarga erishilayotgan bo'lsa, yangi islohotlar samarasi, deb bilaman. Men adabiy aloqalarni mustahkamlash yo'lida O'zbekiston rahbari va hukumatiga cheksiz minnatdorlik bildiraman. Zero, bu kitob orqali ko'plab o'zbek xonadonlariga kirib borish baxtiga muvaffaq bo'lyapman".

O'zbek va qirg'iz xalqi o'rtasidagi do'stlik aloqalari azaldan ikki xalqning adabiyotida, san'atida aks etib keladi. G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Abdulla Oripov kabi zabardast adib va shoirlarimizning asarlari Qirg'izistonda, Chingiz Aytmatov, To'lqan Qosimbekov, Mar Boyjiyev, Murza G'aparov singari iqtidorli yozuvchilar kitoblari O'zbekistonda sevimli bo'lib ketgani shundan dalolatdir. Sulton Rayevning "Tanlangan asarlar"i ham ikki millat adabiy qarashlari uyg'unlashgan kitob sifatida o'zbek kitobxonlari qalbidan chuqur joy olishiga ishonchim bilan.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

XONADONDAN DAVLATGA SOTILAYOTGAN ELEKTR ENERGIYASI

ODAMLAR BU SOHADAN FOYDA KO'RISHGA HARAkat QILMOQDA

Qaror va ijro

Televide niy orqali uzatilgan bir ijtimoiy targ'ibot yodingizdami: Unda bobo o'z nabirasiga tejamkorlik haqida gapirarkan, "Chiroqni o'chirib yursang, elektr energiyasi eng chekka hududlarga yetib boradi", deydi. Elektr energiyasi, umuman, tabiiy xaziralarni tejash kun sayin zarur bo'lib bormoqda.

Aytish mumkinki, shunday murakkab bir sharoitda mamlakatimizda atigi 5-6 yil ichida eng chekka hududlar doimiy cheklolvar qo'llaniladigan manzillardan elektr tokidan uzilmaydigan hududlarga aylandi. Sohaga zamonaviy yondashuvlar tatbiq qilindi. Infratuzilma yangilandi. Kadrlar salohiyati ortib bordi va yangilariga almashirildi. Islohotlarning izchil borishi uchun esa davlat tomonidan huquqiy

oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarning ham ishtirokini ta'minlaydigan mexanizm yo'lga qo'yildi. Ya'ni quyosh panellarini o'rnatib, ehtiyojidan ortgan qismini davlatga sotish imkoniyati yaratildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi



asoslar yaratib berildi. Natijada so'nggi 5 yil ichida umumiy quvvati 7047 megavattga teng quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda 21 ta bitim hamda umumiy quvvati 2030 megavattlik 5 ta elektr energiyasini transportirovka qilish shartnomasi imzolandi.

Ayni jarayonda mamlakatimizda jami quvvati 3977 megavattga teng 19 ta quyosh fotoelektr hamda umumiy quvvati 3100 megavattlik 7 ta shamol elektr stansiyasini qurish loyihalari hayotga tatbiq etilmog'da. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini

doirasida Surxondaryo viloyatida ham e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, quyosh panellari o'rnatgan 571 iste'molchi tomonidan "Yashil energiya" platformasi orqali "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatiga 3 million 251 ming kilovatt/soatdan ortiq elektr energiyasi sotilgan. Viloyatda bu qulaylikdan foydalanayotgan oilalar soni ham kun sayin ortib boryapti. Masalan, Denov tumanida yashovchi Jasur Xandalov uyining tom qismida o'z ehtiyoji va kelajagi uchun kapital bo'la oladigan daromad manbai — quyosh panellarini o'rnatdi.

— Yangi uy qurib bo'lgach, tomga quyosh panellarini o'rnatish fikri tug'ildi.

Tumanda mas'ullarga murojaat qildim. Ular kelib o'rganishgach, 60 kilovattli quyosh panelini taklif qilishdi. 50 kilovattli ongrid va 10 kilovattli gibrid inverterlari o'rnatildi. Har kuni xonadon iste'molidan tashqari 180-200 kilovatt elektr energiyasini davlatga sotaymiz, — deydi Jasur Xandalov. — Shuning ortidan bir oyda 5-6 million so'mgacha daromad ko'rish mumkin ekan.

Aytish kerakki, tadbirkorlik subyektlariga quyosh panellari bo'yicha qulaylik va imkoniyatlar berilishi evaziga "yashil" energiya ishlab chiqarish quvvatlari oshib bormoqda. Xorijiy davlatlarda bo'lib, quyosh panellarini o'rnatish, ta'mirlash jarayonlarni o'rnatish muvaffaqiyatli bugungi kunda aholiga sifatli va tezkor xizmatlarini taklif etmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar Surxondaryo viloyatida 682 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idoralari 20,5 megavattlik, 1405 ta tadbirkorlik subyekti 28,1 megavattlik, 3791 ta xonadonga esa quvvati 20,5 megavattlik quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan. Hozirgi kunga qadar esa ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari 749 ta 14,4 megavattlik quyosh panellari o'rnatildi. Natijada 15,5 million kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellari orqali 11,2 million kilovatt/soat hamda aholi xonadonlaridan 9,2 million kilovatt/soat elektr energiyasi hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini tomonidan xarid qilingan. Sotib olingan elektr energiyasi uchun shu kunga qadar 978 million 216 ming 510 so'm mablag' to'lab berilgan.

Quyosh panellarini o'rnatish istagidagi yurdodshahrimiz imtiyozli kreditlar asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotgani esa ishlarda izchillikni ta'minlamog'da.

Odada ayrim jabhalarda tadbirkorni ishlab chiqarigan mahsulotga bozori topish masalasi tashvishga soladi. Quyosh panellarini o'rnatib, o'zi uchun daromad manbai shakllantirish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslar esa mana shu tashvishdan xoli. Chunki bugun davlatning o'zi elektr energiyasini cheklanmagan miqdorda sotib olish taklifini bermog'da.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

ARALASH SAYLOV TIZIMI

UNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING ZARURATI HAMDA AHAMIYATI

Taraqqiyot yo‘li

sonidan kelib chiqqan holda belgilash, deputatning saylovchilar, siyosiy partiya bilan aloqasini yanada mustahkamlash kabi sifati o‘zgarishlar aynan huquqiy davlat tamoyillarining muhim belgisi bo‘lib xizmat qiladi.



Mirzayusup RUSTAMBAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i, yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Qolaversa, islohotlar jarayonida parlament hamda mahalliy vakillik organlarining faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirish, vakillik organlariga saylangan deputat va senatorlarning parlament hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatidagi mas‘uliyati va faolligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, saylov komissiyalari tizimini maqbullash va markazlashgan saylov organlari tizimini shakllantirish, ularning professional tayyorgarligini ta‘minlash zarurati kelib chiqqan holda huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda.

Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun asosida Saylov kodeksi va yetti joriy qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan holda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekistonda ilk bora Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlar aralash saylov tizimi orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Joriy yilgi saylovlar yangilangan Konstitutsiya mustahkamlagan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, referendum va saylovlar insoniyatning bir necha asrlik tarixiy rivojlanish mahsuli hamda demokratiyaning muhim ko‘rinishi bo‘lib, davlat va jamiyatning takomillashgan modellari shakllanish maqsadida doimiy ravishda demokratik tamoyillarni, uni amalga tatbiq etish omillarini kengaytirib borish zarurati asosida rivojlanadigan institutdir.

Saylovlarni tashkil qilish va o‘tkazishdagi o‘zgarishlar, avvalo, Markaziy saylov komissiyasini shakllantirish, vakolat va funksiyalarida namoyon bo‘ldi. Xususan, Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan to‘qqiz nafar a‘zodan iborat tarkibda tuzilishi va doimiy asosda faoliyat yuritishi belgilandi. Markaziy saylov komissiyasining bir nafar a‘zosi Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘lib, Markaziy saylov komissiyasining a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘rg‘o‘l Kengeshining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasiga ko‘ra Qonunchilik palatasi hamda Senat tomonidan saylanadigan bo‘ldi.

O‘z navbatida, Markaziy saylov komissiyasining raisi Prezident taqdimnomasiga binoan komissiya a‘zolari orasidan besh yillik muddatga komissiya majlisida saylanishi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasining raisi etib saylanishi mumkin emasligi ham belgilab qo‘yildi.

Shu bilan birga, har tomonlama chuqur tahlillar va keng jamoatchilikning takliflari asosida hududiy saylov komissiyalar faoliyatini belgilash, partiyalar ro‘yxatini shakllantirish, partiya ro‘yxatidagi vakillarning saylovlarda ishtirokini huquqiy kafolatlash, siyosiy partiya fraksiyalarini tuzishda qulayliklar yaratish, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi deputatlik o‘rinlari sonini aholi

so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik degan ma‘noni anglatadi. Saylov tizimining ushbu turida qonun bilan belgilangan saylovchilarning ko‘pchilik ovozi olingan nomzod mazkur okrug bo‘yicha deputat sifatida saylangan hisoblanadi. O‘zbekistondagi kabi Buyuk Britaniya, AQSH, Meksika va boshqa davlatlarda ham majoritar saylov tizimi amal qiladi.

E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, tarixda yigirmanchi asrgacha saylovlar instituti sof majoritar shaklda mavjud bo‘lgan. Partiya ro‘yxati bo‘yicha, ya‘ni proporsional saylov tizimi bo‘yicha saylovlar birinchi marta 1899-yilda Belgiyada joriy etilgan. Keyinchalik, 1906-yilda Finlyandiya, 1909-yilda Shvetsiyada, 1921-yilda Daniya va Norvegiyada proporsional saylov tizimi qo‘llanila boshlandi. Endilikda proporsional saylov tizimi Ispaniya, Turkiya, Isroil, Gretsiya, Shveysariya, Polsha, Avstriya, Lixtenshteyn, Latviya, Xorvatiya kabi mamlakatlarda ham qo‘llanilayotir. Hozirgi kunda mazkur tizimdan 80 ga yaqin davlatlar foydalanadi.

Alohida qayd etish lozimki, proporsional vakillik tizimi har bir siyosiy partiya ovozlar soniga mutanosib ravishda bir qancha o‘rinlarni olish imkonini berishi va shuning uchun bu tizim majoritar tizimdan ko‘ra adolati ko‘rinishi mumkinligi, saylovchilarning turli guruhlari o‘z vakillari uchun deputatlik o‘rinlarini ta‘minlash orqali saylov natijasi aholi tomonidan adolati deb hisoblanishi bilan ahamiyatli.

Bu tizimning asosiy maqsadi saylovlarda olingan ovozlar bilan amalda parlamentda egallangan mandatlar mutanosibligini ta‘minlashdir. Ya‘ni, masalan, bir partiya saylovda 30 foiz ovoz olgan bo‘lsa, parlamentda 30 foiz mandatga ega bo‘lishi, saylovda 15 foiz ovoz olgan partiya esa tegishli 15 foiz mandatga ega bo‘lishi kerak. Proporsional saylov tizimining ko‘pchilik ovoz tamoyiliga asoslangan majoritar saylov tizimidan asosiy farqi ham shunda.

Demak, mazkur saylov tizimiga asosan, saylov jarayonlarida okruglar bo‘yicha siyosiy

JORIY YILGI SAYLOVLAR MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SHIDDATLI ISLOHOTLAR SUR‘ATIGA HAMOHANG BO‘LIB, BUNDA AHOLING SIYOSIY VA HUQUQIY MADANIYATI, FAOLLIGI YANA BIR BOR SINOVDAN O‘TADI. SHUNDAY EKAN, BIR YOQADAN BOSH CHIQRARGAN HOLDA SAYLOVLARDA FAOL ISHTIROK ETIB, OBOD VATANIMIZ TARAQQIYOTIGA MUNOSIB HISSA QO‘SHISH XALQIMIZ OLDIYOGI HAM QARZ, HAM FARZDIR.

partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlarga emas, aksincha, siyosiy partiyalarga saylovchilar o‘z ovozi beradi va shu orqali partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlar berilgan mandatlar asosida aniqlab olinadi. Albatta, mazkur tizim siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi faolligini yanada oshiradi, jamiyatdagi o‘rinni ko‘rsatib beradi, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatning shakllanishiga imkon yaratadi.

Aralash saylov tizimi majoritar va proporsional saylov tizimlarini birlashtirish prinsipiga asoslangan jarayondir. Bu tizim Germaniya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Vengriya, Albaniya, Yaponiya, Rossiya, Qozog‘iston, Gruzziya kabi davlatlarda qo‘llaniladi.



O‘zbekistonda ham aralash saylov tizimidan foydalanilayotgani siyosiy partiyalarning jamiyatda yetakchi kuch sifatida o‘z rolini oshirishga, partiyalar elektoratining manfaatlarini himoya qilish, davlat boshqaruvidagi ishtiroki va o‘rinni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu tizim fuqarolarimizga saylovlarda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning dastur va saylovlari platformalari bilan yaqindan tanishish, partiyalar o‘rtasida o‘zaro raqobatlashuvni kuchaytirish, xulosa qilib aytganda, jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlash, o‘z o‘zini aytish imkoniyatini yaratib beradi.

bu jamiyatni demokratlashtirish sari qo‘yilgan jiddiy qadam hisoblanadi va bu orqali har bir saylovchining ovozi muhimligi ta‘minlanadi. Mazkur tizim orqali deputatlar siyosiy partiyaning saylovoldi dasturidan kelib chiqqan holda o‘z elektorati bilan faolroq ishlash, birinchi navbatda shaxsni emas, balki partiyaning qo‘llab-quvvatlaydi, elektorat siyosiy partiyalar bilan ko‘proq qiziq boshlaydi va natijada deputatlar siyosiy partiyalarning faoliyatida yanada qizg‘in ishtirok etadi.

Shu bilan birga, aralash saylov tizimida siyosiy partiyalarga berilgan har bir ovoz kelgusida deputatlik o‘rinlarini taqsimlashda inobatga olinadi.

Uchinchidan, siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish talabi yengillashtiriladi. Xususan, Qonunchilik palatasi saylovida ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozi to‘plagan holda 5 ta (ilgari 9 ta deputatlik o‘rnini olish zarur bo‘lgan) deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiyalar davlat tomonidan moliyalashtirilishi ko‘zda tutiladi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi saylovi xarajatlarini salmoqli darajada maqbullashtirishga erishildi. Okrug saylov komissiyalarining vazifalari hududiy saylov komissiyalariga yuklatilishi munosabati bilan saylov kampaniyasi davrida okrug saylov komissiyalari uchun amalga oshiriladigan 3,4 milliard so‘m miqdordagi mablag‘ni iqtisod qilishga imkon beradi.

To‘rtinchidan, parlamentda ayol deputatlar salmog‘i yanada oshirildi. Bunda, partiya ro‘yxatidagi nomzodlarning tartib raqami bo‘yicha kamida har besh nafar nomzodning ikki nafar ayol kishi bo‘lishi, ya‘ni 40 foizi xotin-qizlardan iborat bo‘lishiga oid qoidalar Qonunchilik palatasida 40 foiz ayol deputatlar saylanishi mumkinligini belgilaydi.

Bu borada Qozog‘istonda partiyaviy ro‘yxatdagi nomzodlarning 30 foiz ayollar, yoshlar va nigoriqligi bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lishi kerakligi, Norvegiyada 40 foizi, Daniyada 50 foiz ayollar bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan.

Beshinchidan, majoritar tizimdagi saylovlarda siyosiy partiyalar ko‘proq mandatga ega bo‘lishi uchun, asosan, deputatlikka nomzodlarni shakllantirishda jamoatchilikka tanish va mashhur shaxslarga ko‘proq tayanadi. Proporsional tizim esa siyosiy partiyalar ustuvor ravishda partiya ro‘yxatiga yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni kiritishi orqali parlament va saylovchilarni oldidagi mavqei mustahkamlashga hamda professionalikka intilishi bilan ham ahamiyatli.

Yana bir muhim jihatlardan biri Qonunchilik palatasida bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlarini to‘ldirish masalasining optimallashtirish ko‘rinadi. Ya‘ni aralash saylov tizimida partiya ro‘yxati asosida shakllantirilgan va bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlari ushbu partiya ro‘yxatidagi boshqa nomzodlar hisobidan to‘ldiriladi. Mazkur tartib esa bo‘shab qolgan o‘rinlar uchun saylov xarajatlari 50 foizgacha maqbullashtirish imkonini beradi.

Oltinchidan, joriy saylovlardagi o‘zgarishlar asosida Qonunchilik palatasi saylovda xorijdagi fuqarolarning ovoz berishdagi ayrim tushumovchiliklar bartaraf etiladi.

Ta‘kidlash lozimki, Qonunchilik palatasi saylovida xorijdagi saylov uchastkalari,

odatda, Toshkent shahridagi saylov okruglariga birlashtirilgan bo‘lib, O‘zbekistonning turli hududlaridan borgan fuqarolar Toshkent shahridan saylanadigan deputatlarga ovoz berish holati xorijdagi fuqarolar orasida turli tushumovchiliklarga olib kelgan.

Aralash saylov tizimida esa xorijdagi saylovchilar faqat proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga ovoz beradi va hududiylik bilan bog‘liq masalalar vujudga kelishining oldini olishga erishiladi.

Yettinchidan, majoritar tizim bo‘yicha nomzodlarga ovoz berish tartibi takomillashtirildi. Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar uchun majoritar saylov tizimini mutlaq ko‘pchilik (50 foiz + 1 ovoz) tartibidan nisbiy ko‘pchilik (boshqalarga nisbatan eng ko‘p ovoz olgan nomzod deputat bo‘lib saylanadi) tartibiga o‘tkazildi. Ta‘kidlash kerakki, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Singapur va Hindiston kabi mamlakatlarda davlat vakillik organlarining saylovida ham deputatlar saylovchilarning nisbiy ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Sakkizinchidan, mahalliy Kengashlar saylovlarning qonuniyligi va tizimli amalga oshirilishi ta‘minlandi. O‘rganishlar davomida mahalliy Kengashlarning saylovlarini tashkil etishda mas‘ul saylov komissiyalari kampaniyani moliyalashtirish, saylovoldi tashviquchi uchun nomzodlarga sharoit yaratish, bo‘shab qolgan o‘rinlarga saylovlarni o‘tkazishda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi kuzatilgan. Tizimlashgan holda esa hududiy saylov organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va qonuniyligini ta‘minlash Markaziy saylov komissiyasining asosiy vazifalaridan biri bo‘ladi.

To‘qqizinchidan, hokimlarning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatida vakolatlari tugatilishining birinchi bosqichi amalga oshirildi. 2024-yilgi davlat vakillik organlari saylovlardan so‘ng yangi saylangan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining raisi sifatida hokimning vakolatlari tugatiladi. Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga endilikda deputatlar orasidan saylanadigan alohida mansabdor shaxs raislik qiladi.

O‘ninchidan, saylov jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatdama to‘liq raqamlashtirish, saylov tartibotlaridagi byurokratiya, ortiqcha vaqt sarfi va huquq harakatini qisqartirish, manfaatlar to‘qshuvining oldini olish, saylovlarga oid ma‘lumotlarning yanada ochiqqligini ta‘minlash maqsadida “E-saylov” axborot tizimi ishlab chiqildi.

“E-saylov” axborot tizimi idoralararo platformalar bilan integratsiya qilinib, saylov jarayonidagi byurokratik tartibotlarni keskin qisqartirish va ma‘lumotlar almashinuvini inson omilisiz to‘liq avtomatlashtirilgan tizimda amalga oshirishga yordam beradi.


Xulosa o‘rinda ta‘kidlash lozimki, joriy yilgi saylovlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar sur‘atiga hamohang bo‘lib, bunda aholining siyosiy va huquqiy madaniyati, faolligi yana bir bor sinovdan o‘tadi. Shunday ekan, bir yoqadan bosh chiqargan holda saylovlarda faol ishtirok etib, obod vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish xalqimiz oldidagi ham qarz, ham farzdur.

BIR MANDATLI SAYLOV OKRUGLARI BO‘YICHA QAYSI HUDAUDAN NECHTA DEPUTAT SAYLANADI?



Saylovning o‘ziga xos jihatlaridan biri siyosiy partiyalarining o‘z xohish-irodasini izhor etishidir. O‘z navbatida, deputatlik mandatlariga kimlar nomzodlarini taklif etishi, deputatni saylashda saylovchilarning qay miqdordagi ovozi zarur ekanligi, nomzodlarni taklif etgan siyosiy partiyalar orasida deputatlik mandatlarini qanday taqsimlanishi, saylovlarni tashkil qilish tartibi va natijalarini aniqlashning qonuniyligi kafolati hisoblanadi.

Mazkur tadbirida barcha hududlardan 300 ga yaqin tadbirkor va investor, shuningdek, xorijda o'z biznesini yo'lga qo'yg'an 40 dan ortiq o'zbekistonlik, uch mingga yaqin biznes vakili hududiy studiyalardan ishtirok etdi.



Munosabat



TADBIRKORLIK

XALQ ORASIDA OMMALASHAYOTGAN KATTA TARMOQQA AYLANYAPTI

Gulruh A'ZAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

“Davlatimiz rahbari bunday raqamlar 33 yillik tariximizda bo'lmaganini e'tirof etgan holda, tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda beshta yo'nalishda, xususan, kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirish, xizmatlar sohasini takomillashtirish, biznes uchun to'siq va g'ovlarni yanada qisqartirish kabi yangi tashabbuslarni ilgari surdi.



Bugungi kunda 100 dan ortiq ishchisi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashib, ulardagi ish o'zmi bir yilda 440 mingga ko'paydi. Xususi sektorida 5 million so'mdan ko'p maosh oladigan ishchilar 1 milliondan oshdi.

Qo'shni davlatlar bilan aloqalar misli ko'rilmagan darajaga chiqdi. O'zbekiston mahalliy korxonalar uchun ham, chet el kompaniyalari uchun ham katta bozorga, mintaqadagi sanoat xabiga aylanib ulgardi.

Yaqinda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshdi. Joriy yil olti oyda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi o'tgan yildagiga nisbatan 2 karra o'sib, 14 milliard dollarga yetdi.

Davlatimiz rahbari bunday raqamlar 33 yillik tariximizda bo'lmaganini e'tirof etgan holda, tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda beshta yo'nalishda, xususan, kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirish, xizmatlar sohasini takomillashtirish, biznes uchun to'siq va g'ovlarni yanada qisqartirish kabi yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Albatta, bu tashabbuslar davlat organlari, ijro hokimiyati hamda tadbirkorlardan katta mas'uliyat talab qiladi. “Tadbirkor — elga madadkor” naqlini hammamiz bilamiz. Lekin shunday katta mas'uliyatni zimmasiga olgan tadbirkorning o'ziga kim madadkor? Prezidentimiz ta'kidlaganidek, agar qaysi hokim o'z hududining gullab-yashnab, taraqqiy topishini istasa, avvalo, tadbirkor va yana bir bor tadbirkorga chinakam madadkor bo'lishi kerak. Har bir tadbirkor va ishbilarning ortida Prezident turibdi!

Haqiqatan, ishbilarning doira vakillari bu kuni intizorlik bilan kutgan edi. Davlatimiz rahbari ularning faol taklif va tashabbuslarini katta ishonch, umid va qiziqish bilan tingladi. Zero, tadbirkorlarga Prezidentimizning ishonchi qanchalik zarur va ahamiyatli bo'lsa, davlat rahbariga ham bugungi globallashuv davrida, jadallashayotgan islohotlar jarayonida, yangi O'zbekiston taraqqiyotida ularning yelkadosh, yurt rivoji yo'lida vatanparvar bo'lishi shunchalik muhimdir.

YURTIMIZNI DUNYOGA TANITISH BURCHIMIZ



Beknazar ABDIKAMOLOV,
tadbirkor

(Nukus shahri)

Hozirgi davrda zamonaviy bilimlarni egallamay turib, maqsadga erishib bo'lmaydi. Bu borada axborot texnologiyalarini, dasturlash hamda IT soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, yangi loyihalarda ishlash, ularni yurt farovonligi yo'lida tatbiq etish juda muhimdir.

Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda men shu imkoniyatlar xususida gapirdim. Uchrashuvda davlatimiz rahbariga Nukusda IT akademiyasi o'chganimiz va bu yerda yoshlarga o'z tajriba va bilimimni berayotganimni aytdim. Gapim davlatimiz rahbariga ma'qul kelib, bunday loyihalar zarurligini ta'kidladi. Hozir akademiyamizda 35 nafar yosh ta'lim olmoqda.

Bu borada tajriba orttirishimda AQSHning “Amazon” kompaniyasida dasturchi bo'lib faoliyat yuritayotganim, Singapurda yurtdoshlarimiz bilan shu sohaga doir kompaniya tashkil qilganimiz qo'l keldi. Imkoniyatlardan foydalanib, yurtimizni dunyoga tanitishga o'zimizni mas'ul deb bilaman. O'zbekiston yoshlari juda iqtidorli, mehnatsevar. Ular bilim va salohiyati bilan dunyoga chiqishiga ishonaman. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida. Chunki yurtimizda bu yo'nalishdagi ishlar juda tez rivojlanmoqda. Qiziquvchilar ko'p. Ularga yaratilayotgan sharoitlar ham yetarli. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz sportdagi kabi axborot texnologiyalari va startaplarda ham mamlakatimizni dunyoga tanitishimiz kerak. Yangi O'zbekistonning yangi qadamlari bizni yangi g'oyalar va loyihalarga ilhomlantirmoqda.

Ochig'i, dasturchi bo'lish bolalikdagi orzum. Dadamning ish kompyuteri bor, ammo internet yo'q edi. Kompyuter ustaxonasiga borib ishlardim. Evaziga esa bir soat internetdan foydalanishga ruxsat olardim. Shu vaqt ichida hamkorlarim bilan muloqot qilib, kerakli darslarni yuklab olardim. Uyg'a borib, videolarni qayta-qayta ko'rib, tahlil qilib, dasturlashni o'rganadim. Fikrimcha, resurslar cheklangani unchalik yomon holat emas. O'zina imkoniyatdan ham maksimal darajada foydalanib bo'lmaydi.

Dunyoda ilmiy tadqiqotlar, axborot texnologiyalari, startap g'oyalar, kompyuter savodxonligiga juda katta e'tibor berilmog'da. Shu jumladan, yurtimizda ham. Ochiq muloqotda davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar tadbirkorlikning boshqa sohalari qatori axborot texnologiyalari yo'nalishi rivojiga ham katta turki beradi.

Boshlanishi 1-betda

Xususan, keyingi yillarda yurtimizda biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 3 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani asosli dalildir.

Ochiq muloqotning ko'lami ham, qamrovi ham yildan yilga ortib boryapti. Har yilgi uchrashuvlar bir-biridan o'zgarib takliflar, tavsiyalar, tashabbuslar, yangi bir islohotlarning boshlanishi bilan ajralib turibdi. Xususan, o'tgan ochiq muloqotlar yakuni bo'yicha Prezident huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi, Biznesni rivojlantirish banki, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etildi.

Qolaversa, ko'plab tadbirkorlarni qiyin kelgan va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan soliq islohotlari joriy qilindi. Yurtimizda Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilishi ham sohadagi katta qadamlardan biri bo'ldi.

Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlarning o'z ustida ishlashi, biznesini rivojlantirish uchun izlanishi, sohaga ilmiy yondashgan holda milliy brend yaratib, dunyo bozorlaridan hech ikkilanmay o'rinishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishiga olib keladi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog'istondagi uchrashuvda aynan shu kabi masalalarga alohida to'xtalib, bu makonda biznes qilishning boshqa hududlarga nisbatan 3 ta ustunligi borligi, ya'ni imtiyozlar paketi ko'pligi, yer ajratishning soddada tizimi, katta bozorlarga chiqish uchun qulayligiga e'tibor qaratdi.

Mazkur tadbirida barcha hududlardan 300 ga yaqin tadbirkor va investor, shuningdek, xorijda o'z biznesini yo'lga qo'yg'an 40 dan ortiq o'zbekistonlik, uch mingga yaqin biznes vakili hududiy studiyalardan ishtirok etdi.

Keyingi yillarda an'anaga aylangan bu muloqot sohadagi tizimli muammolarni hal etishi, takliflar muhokama qilinishi va yangi qulayliklar yaratishi bilan ishbilarning kutadigan tadbirga aylandi. Chunki tadbirkorlik muayyan doira vakillari emas, balki o'ziga xalq orasida ommalashayotgan katta tarmoqqa, alohida tizimga aylandi.

Yaratilgan biznes muhiti barchaga teng imkoniyatlar berayotgani, qulay tadbirkorlik

sharoiti shakllanib, O'zbekiston ishbilarning yurtiga aylanib borayotgani Prezidentimiz tomonidan ijobiy baholandi.

Jumladan, shu yilning o'zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yildagiga nisbatan 25 foiz oshib, 986 trillion so'mga yetdi. Yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar 2 karra ko'paydi. Aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq yirik korxonalar esa

2 ming 200 tadan oshdi. Soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksi “mahallabay” va “mijozbay” ishlayotgani natijasida oldin zarar bilan ishlagan 16 ming korxonada yarim yilda 6,5 trillion so'm foydaga chiqdi.



Islohotlar amalga



ZAMON BILAN HAMNAFAS ISHLAGAN YUTQAZMAYDI

TO'XTAB TURGAN LOYIHALARIMNI AMALGA OSHIRISH IMKONI TUG'ILDI

Latofat HUSANOVA,
“Chados” korxonasi
rahbari

(Navoiy shahri)



Tadbirkorlik faoliyatimni 2017-yil boshlaganman. O'shayili Prezidentimizning “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilinib, hunarmandlar uchun qator imtiyozlar yaratilgan edi. Aynan shu omil tadbirkorlikka qo'l urishimga turki bo'lgan. Korxonamiz milliy o'yinchoqlar tayyorlashga ixtisoslashgan bo'lib, dastlab bir kishi bilan ish boshlagan edim. O'tgan yillar davomida tadbirkorlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar natijasida korxonamiz faoliyatini kengaytirdik. Hozir bizda 20 nafar xotin-qiz ishlaydi. Ularning 8 nafari nogiron.

O'tgan yili “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan edim. Bu e'tirof va bizga ishonch hissi shijoat bilan harakat qilishimda kuch bag'ishladi.

Har yili Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ishtirok etaman. Tadbirkorlarni qiyinayotgan masalalar muhokama qilinib, muammolarga yechim

kelayotgani va yangi loyihalarimni amalga oshira olmayotgandik. Gap shundaki, korxonamiz faoliyatini kengaytirish maqsadida qurilish uchun yerga ehtiyojimiz bor. Ammo yerni auktsiondan sotib olsak, mablag'ini to'liq to'lasak, keyingi jarayonlarni davom ettirish uchun qiyinlashib qolishimizni o'ylab, bu ishga qo'l urmay turgandik. Muloqotda bu masalaga ham alohida to'xtalib o'tildi. Xususan, Prezidentimiz endi tadbirkor auktsiondan yer sotib olganda unga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash bekor qilinishini ta'kidladi. Shuningdek, Toshkent shahri va viloyat markazlarida sotilgan yer bo'yicha xarid summasini uch yilgacha, qolgan hududlarda besh yilgacha, 4- va 5-toifa tumanlar uchun esa o'n yilgacha bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berildi. Qolaversa, tadbirkorlar darhol to'lov qilaman desa, 20 foizgacha chegirma berilishi ham aytiladi.

Tadbirkorlarga berilgan yangi qulayliklardan juda xursand bo'ldim. Endi korxonamiz faoliyatini rivojlantirish, to'xtab turgan yangi loyihalarimni amalga oshirishga imkon tug'ildi. Muhimi, ushbu imtiyozlardan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratishimiz, bizga bo'lgan yuksak ishonchni oqlashimiz zarur.

Mamlakatimizda tadbirkorlik yo'nalishi tom ma'noda yangi bir bosqichga ko'tarildi. Natijada biznes tashkil etib, oilasi, mahalla va yurt farovonligiga munosib hissa qo'shayotgan tadbirkorlar safi tobora kengayib bormoqda. Denovlik Qurbonali Kazakov ham keyingi yillarda yaratilgan ana shunday sharoitlardan unumli foydalanib, “Qurbonali tekstil” oilaviy korxonasi faoliyatini yo'lga qo'ydiki. Korxonada avtomobil o'rindig'i uchun qoplamalar tikiladi.

Oilaviy korxonamizni tashkil etish orqali aynan xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsad qilingandi, — deydi Q.Kazakov. — Hozir 80 kishi ishlayapti. Ular tikayotgan mahsulotlar Surxondaryo bozoridan tashqari, qo'shni davlatlarda ham anchagina xaridorig, buyurtmachilar ko'p.

Amir Temur bobomizning bundan olti asr oldin aytdi: “Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi ming tadbiriz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan hikmati bor. Bu fikrlar bugungi yangi O'zbekistonning zamon



bilan hamnafas tadbirkorlari sha'niga bitilganek. O'zim misolimda aytadigan bo'lsam, endi bizning Jamatak mahallasidan odamlar avvalgidек xorijga ishga ketmaypti. Tadbirkorlar safi ortgan. Shu yerda ishlab, yaxshigina daromad ko'ryapti. Ishchilarimizning aksar qismi rasmiy ro'yxatdan o'tgan, korxonalar uchun soliq to'laydi. 30 ga yaqin xotin-qiz kasnachilik asosida mehnat qilyapti.

Tikuvchilarning 20 ga yaqini esa “Ayollar dafteri” ro'yxatiga kiritilgan.

Mehnat qilgan elda aziz. Aholi bandligiga, sanoat rivojiga oz bo'lsa-da hissa qo'shayotgan tadbirkorning faoliyati munosib rag'batlantirilib, “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Tadbirkor uyg'oq va zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak, — deya so'zida davom etadi Qurbonali aka. — Nukus shahrida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqotida yurtimizning barcha hududlaridan

ko'plab tadbirkor va investorlar to'planib, davlat rahbari bilan samimiy muloqot qildi. Men Denov tumanidagi hududiy studiyadan qatnashdim. Endi qarang, Nukus mamlakatimizning eng shimolidagi yirik shahar. Denov esa mamlakat janubidagi eng yirik aholi manzili. Mana shu bir ming ikki yuz kilometr oraliqda ish olib borayotgan minglab tadbirkorlarning umumiy muammolari Prezidentimiz tomonidan birmabir ta'kidlanib, mas'ullarga yechim topish, ishbilarmonga yanada keng sharoit yaratish haqidagi topshiriqlari tahsinga sazovor. “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlanishim hayajoni bosilmay turib, Nukusdagi muloqotda davlatimiz rahbarining yangi-yangi marralar uchun ruhlantrishi hali yurt taraqqiyoti uchun ko'p ishlar qilishga undayapti.

Kuzataymiz, mamlakatimizda tadbirkorlik va ishbilarning muhosiya mutlaqo yangi muhit, yangi nafas va yangicha qarashlar kirib kelyapti. Buning natijasida nafaqat yirik shaharlarda, aholi gavjum maskanlarida, balki eng chekka manzillarda ham sanoat jadalik bilan rivojlanib boryapti. Denovlik tadbirkorning samarali faoliyati esa fikrimiz tasdig'i.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

MAQSAD TO'G'RI QO'YILSA, ALBATTA, NATIJA BO'LADI



“ Sportchilarimiz to'rt yillikning eng nufuzli musobaqasida o'z rekordini yangiladi. Musobaqada erishilgan natijaning tarixiyligi shundaki, mamlakatimiz sportchilari "Parij — 2024" Olimpiadasida dunyo bo'yicha 13-, Osiyoda 4-, MDH, Markaziy Osiyo, turkiy, musulmon davlatlar orasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Boshlanishi 1-betda

— Parijda qo'lga kiritilgan tarixiy natija barchamizga faxr va iftixor bag'ishlamog'da. Biz bunga o'zimiz ko'rgan tomondan baho beraymiz, ya'ni dunyo bo'yicha 13-o'rin, mamlakatimiz tarixidagi eng yaxshi natija. Endi biz bilmagan rekordlar haqida o'rtoqlashsangiz.

champion bo'lishga har bir sportchi intiladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko'radi. Bu yergacha yetib kelishning o'zi ham aslida, g'alaba. Hech bir sportchi maydonga mag'lub bo'laman, yutqazaman deb tushmaydi. Ba'zan omad, ba'zan esa tajriba yetishmaydi.

Biz sport tibbiyotiga alohida e'tibor berdik. Tayyorlanish bosqichida sport diyetologiyasi, psixologiyasi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar sportchilar bilan alohida ishladi. Sportchilarni tayyorlaydigan murabbiylarga har oyda to'lab boriladigan stipendiyalar joriy qilingan. Ya'ni sportchilar faqat sport bilan

Buning zamirida Prezidentimiz tomonidan 2016-yildan boshlab ilgari surilgan ustuvor vazifalardan biri — qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash tamoyili mujassam. Bu yerda juda katta g'oya yetibdi, davlatimiz rahbari boshlagan tashabbus sport sohasida ham aksini topdi. Buni bizning murabbiyimiz qirg'izistonlik bokschi finalgacha bo'lgan janrlarida hamrohlik qilganida ham ko'rsak bo'ladi.

— Qo'shni davlatlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi, adashmasam, butun dunyoda kamdan-kam kuzatiladigan hodisa. Jarayonga butun dunyo havas qildi. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda yaxlit ruh paydo bo'ldi, shunday emasmi?

— Albatta, hech bir mintaqadagi qo'shni orasida bu kabi holat kuzatilmadi. O'zbekiston murabbiysi o'sha vaznda o'z sportchisi bo'la turib, qirg'izistonlik bokschini finalgacha tayyorlab borgan alohida e'tirofga loyiq. Bu mintaqada sportni jipslik bilan rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

— Olimpiya o'yinlari yakunlanganidan keyin bir oz ko'ngilga og'ir botadigan holatlar bo'ldi, nazarimda. Masalan, Bahodir Jalolovning professional bokschi bo'la turib, havaskor boksda qatnashganini ba'zi OAVlar tanqid qildi.

— Shaxsan bu fikrlarga qo'shimlayman. Sababi, Bahodir bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. U oldingi Olimpiadada ham havaskor bokschi sifatida ishtirok etib kelgan. Avvalgi

tasodifiy emas. Hammasi tizimli. So'nggi paytlarda Osiyo musobaqalari, xalqaro turnirlar, Olimpiya o'yinlarida ham bokschilarimiz ko'rsatayotgan natijalar bizda boks tizimni rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

— Ba'zi manbalarda boks keyingi Olimpiada dasturidan olib tashlanishi haqida har xil gap-so'zlar tarqalyapti.

— Hali boks Olimpiya o'yinlaridan chiqib ketadi, degan aniq xabar yo'q. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan yangi tashkilot tan olinsa va unga ishonch bildirilsa, albatta, boks davom etadi. Zero, boks Olimpiadaning o'ziga xos asosiy sport turlaridan biridir. Chunki ba'zi sport turlari ikki yoki uch kunda tugasa, boks nufuzli musobaqaning boshidan oxiriga qadar davom etadi.

— Agar dasturdan chiqarilgan taqdirda ham boksning o'rnini bosadigan yosh boks sport turlari bo'yicha sportchilarimiz yetishib kelyaptimi?

— Albatta, biz Parij Olimpiadasidan so'ng naqat yutuqlarimiz, balki xato va kamchiliklarimizni ham tahlil qilamiz. Bu borada vazirlik bilan ishlayapmiz. Natijalarga qarab, keyingi Olimpiadaga tayyorgarlik ko'riladigan sport turlari geografiasini ham kengaytiramiz.

Bu o'rinda jamoaviy sport turlari, suzish, yengil atletikaga alohida e'tibor qaratamiz. Chunki bu sport turlarida yo'nalishlar ko'p bo'lishi sababli medal qo'lga kiritish imkoni katta. Shu bois, boks Olimpiada dasturidan chiqarilsa ham uning o'rini bosadigan turlarni kengaytiramiz.

borishdi va kumush medallarga ega chiqishdi. Xanchjou — 2022 yozgi Osiyo o'yinlarida esa bronza medali qo'lga kiritildi. Olimpiadada kuchli 16 talikka kirish, futbol rivojlangan davlatlar qatorida ishtirok etish, birinchi o'yinda amaldagi chempion jamoa bilan tengma-teng o'ynash keyingi musobaqalarda natijaga erishishimizga umid uyg'otdi.

Albatta, bizda gandbol, voleybol ham rivojlanyapti. Ularda o'sib kelayotgan umidli yoshlar juda ko'p. Endi futboldagi andozani boshqa jamoaviy sport turlariga ham tatbiq etib, keyingi Olimpiya o'yinlarida natijaga erishishimiz mumkin.

2025-yilda Toshkentda ilk bor katta sport musobaqasi — yoshlar o'rtasidagi yozgi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tadi. Bunga jamoaviy sport turlari bo'yicha ham tayyorgarlik ko'riyapti. Kelajakda ulami Olimpiada sportchilari safida ko'rishimiz mumkin deb umid qilamiz.

— Paralimpiya ba'zan e'tibordan chetqoqda qolganay bo'ladi. Biroq bu ham o'ziga xos musobaqa. Sport ixtisosliklariga zavq, shukuh beradi. Paralimpiyachi sportchilarimizning tayyorgarligi haqida aytib o'tsangiz.

O'zbekistonda paralimpiyachilarga ham Olimpiadachilarimiz kabi bir xil imkoniyat yaratilgan. Qo'lga kiritgan lisenziyalari uchun to'lanadigan mablag'lar, beriladigan mukofotlari ham bir xil. Bu juda muhim omil. Kezi kelsa, paralimpiyachilardagi matonat, kuch, ulardagi ishtiyiq, g'ayrat olimpiyachilarda topilmaydi.

Imkoniyati cheklangan shaxslar sport orqali natijalar ko'rsatib, davlatimiz bayrog'ini baland ko'tarishi mumkin. Sovg'a-salomlar bilan oila a'zolarini xursand qilishi juda quvonarli. Sportga kirguncha muddatda ular o'zlarini noqulay his qilgan bo'lsa, avtomobil, uy-joy bilan otanasini xursand qilganida qanchalar sevinganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Nasib qilsa, bu gal ham yaxshi natijalarni ko'rsatishadi.

— Bir-ikki kun avval internet nashrlaridan davlatimiz rahbari tashabbus bilan buyrud etilayotgan Olimpiya shaharchasidagi qurilish ishlari bilan tanishganingizdan xabardor bo'ldik. Shu haqda ham aytib o'tsangiz.

— Bilasizmi, har gal shu yerga borganimda menda g'urur hissi uyg'onadi. Chunki biz ko'p musobaqlarda, hatto Parijda ham bu kabi yagona kompleksni ko'rmasdik. Bunaqa Olimpiya shaharchasi sanoqli davlatlarda bo'lsa kerak.

Suv sport turlari, yengil atletika, velosport turlarini rivojlantirishga kerak bo'ladigan inventarlar bilan xalqaro andozalarga mos keladigan yaxlit bir majmua qurilishi juda katta yutuq, albatta. Qaysi bir chet ellik kelib o'rganmasin, o'z taassurotini bo'lishyapti.

Quvonarli, bu faqat o'yinlar uchun qurilmayapti. Majmuadan kelajakda sportchilarni tayyorlashda yagona klaster sifatida foydalaniladi. Amaliyot va nazariya birlashadi. Tashkil etiladigan Olimpiya akademiyasi, barcha sport turlari bo'yicha federatsiyalar, oliy mahorat maktablari jam bo'ladi. Barcha nazariy bilimlarni olgan sportchilarimiz — milliy terma jamoa a'zolari mashg'ulotlarni birga o'tkazib, yirik musobaqalarga tayyorgarlik ko'radi.

O'ylaymizki, bu shaharcha foydalanishga topshirilganidan keyin Olimpiya o'yinlariga har tomondan puxta va to'g'ri tayyorgarlik ko'rish uchun ajoyib platforma bo'ladi.

Abu Bakir O'ROZOV suhbatlashdi.



QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.

— Haqiqatan, bu yilgi yozgi Olimpiada oldingilaridan keskin farq qiladi. Sababi, bungacha bo'lgan eng yaxshi ko'rsatkich bilan, ya'ni sportning 19 yo'nalishi bo'yicha 75 ta litsenziyani qo'lga kiritib, 90 sportchimiz ishtirok etgani quvonarli. Yana bir jihati, bu Olimpiada tarixida ilk marotaba futbol, kamondan o'q otish, suvga sakrash va ayollar kurashi bo'yicha sportchilarimiz qatnashdi.

Bu yilgi ishtirok orqali dunyoga O'zbekistonda gender tenglikning amaldagi kuchini ham ko'rsatdik, deya olamiz. Misol uchun, birinchi marotaba dzyudo bo'yicha 13 litsenziya qo'lga kiritilgan bo'lsa, bu yo'nalishda 5 ayol sportchi qatnashdi. Boks bo'yicha turli vazn toifalarida 4 sportchi qiz ishtirok etishi ham shundan dalolat. Umumiy qilib aytganda, 90 sportchidan 32 nafari ayol edi.

Bu Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan ilgari surilayotgan gender tenglik talablariga mos. Asosiysi, mamlakatimizda ayollar sportiga e'tiborning o'ziga xos natijasi. Ana shu alohida e'tibor o'tidan ular yurtimiz sharafini munosib himoya qildi. Buni Diyora Keldiyorova, Svetlana Osipova qo'lga kiritgan medallar va boshqa ayol sportchilar erishgan natijalar yaqqol tasdiqlaydi. Bunga qadar faqat 2008-yil Pekinda o'tkazilgan yozgi Olimpiadada Yekaterina Xilko medal qo'lga kiritgan edi.

Yana uch sportchimiz ikki karra Olimpiada chempioni bo'lgan ham quvonarli. Bundan tashqari, ko'plab sportchilarimiz o'z ko'rsatkichlarini yangiladi. Bu esa keyingi Olimpiadalarda medallarni qo'lga kiritish uchun umid beradi.

— Nima deb o'ylaysiz, biz bundan ham yaxshi natijani qo'lga kiritadimiz?

— Sportchilarimizning umumiy yutuqlaridan kelib chiqsak, rejamizni to'qson foizga amalga oshirdik. Olimpiadada

Albatta, biz medal olishini umid qilgan va buni uddalashga yaqin kelgan sportchilar bor edi. Taekvando bo'yicha Ozoda Sobirjonova va yana boshqa qator sportchilar, ayniqsa, medalga yaqin keldi.

— Davlatimiz rahbari Tokio Olimpiadasida ishtirok etgan sportchilar, ularning ota-onalari va murabbiylari bilan uchrashuvda "Maqsad aniq qo'yilsa, natija, albatta, bo'ladi", degandi. Bugun bu natijani qaysidir ma'noda qo'lga kiritdik. Siz Parijgacha bo'lgan tayyorgarlik jarayonida boshidan oxirigacha bevosita ishtirok etdingiz. Aytib-chi, musobaqaga tayyorgarlik jarayonida qandaydir qiyinchiliklar bo'ldimi?

— Avvalambor, bir jihati ta'kidlab o'tish kerak. Hamma yerda ham sportga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilmaydi. Bizning katta yutuq'imiz shuki, Prezidentimiz bevosita sportga qiziqib, uni tushunib, har bir mayda detallarigacha e'tibor beradi. Yilda bir necha marotaba barcha soha vakillari bilan uchrashib, muammolarini o'rganadi. Ayniqsa, keyingi yillarda sportni rivojlantirish borasida bir qancha fannon va qarorlar imzolandi. Har bir sport turini alohida rivojlantirish uchun maxsus dastur tasdiqlandi. Hech bir davlatda bunaqa tajriba kuzatilmagan.

Tokiodan so'ng Parij Olimpiadasiga tayyorlanish uchun maxsus dastur ishlab chiqildi va Prezident qarori bilan tasdiqlandi. Bu dasturda soha uchun kerak bo'lgan barcha masalalar o'rtaqa tashlangan va hal qilib berilgan. Respublika komissiyasi shakllantirilib, u kundalik ravishda ko'rilgan masalalarni ham hal qilib bordi. Bizning yutuq'imiz, avvalo, shunda deb o'ylayman. Chunki biz bugungi kunda rivojlangan davlatlar sportchilari bilan bir qatorda tayyorgarlik ko'rishga erishdik. Sportchilar uchun muntazam o'quv-mashg'ulot yig'inlari tashkil qilindi. Sportchilarimiz xalqaro standartlarga javob beradigan sport jihozlari bilan o'z vaqtida ta'minlandi. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib munosib tayyorlanishga erishdi.

shug'ullanib, ijtimoiy masalalarga ortiqcha vaqt sarflamasligi uchun ularga barcha sharoitlar yaratildi. O'z navbatida, sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, kerak bo'lgan litsenzion reyting ballarini jamlab bordi. Bularning barchasi Olimpiadaga tayyorlanish jarayonida reja asosida amalga oshirilgan ishlar. Buning mantiqiy yakuni esa Olimpiadada ishtirok etish uchun litsenziyalarni qo'lga kiritish bo'ldi.

Bir paytlar Olimpiadada g'olib chiqish misoli erishib bo'lmay cho'qqi edi. Prezidentimiz tomonidan "Parij — 2024" musobaqalarida kuchli 15 talikka kirish vazifasi qo'yilganda ham ko'pchilikda shubha bo'lgandi.

Bu biz uchun katta vazifa edi. Uni bajarishni esa barchamiz burch sifatida qabul qildik va ushbu vazifa uddalandi.

— Oldingi Olimpiadalarda boshqalar qatori qo'shni davlatlar sportchilari bilan o'zaro raqobatga o'xshagan muhit shakllangan. Parijda buning aksi o'loraq jipslikni namoyon etishdi. Bu jihat Prezidentimizning mintaq davlatlari bilan yaxshi qo'shinchilik aloqalarini o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlarining sportdagi aksi bo'ldi, deb o'ylaysiz. Siz bu jarayonga bevosita guvoh bo'ldingiz. To'g'rimi?

— Haqiqatan, Tokio yoki Rioda o'tgan Olimpiadalarda qo'shni davlatlar bilan o'zaro raqobatga o'xshagan tushunib bo'lmay vaziyatlarga guvoh bo'lgandik. Sportchilar medal olsa, qo'shni davlat vakillari g'ayritik bilan qaragan hollar bo'lgani rost. So'nggi paytlarda bu kabi qarashlar umuman, boshqa tomonga o'zgardi. Parijdag Olimpiadada bizning sportchilar finalga chiqqan holatlarda qo'shni davlatlar sport vazirlari va boshqalar davlat arboblari ham biz bilan yelkama-yelka turib, sportchilarimizni qo'llab-quvvatlad. Biz ham ularning sportchilarini qo'lladik. Ahamiyat bergan bo'lsangiz, final bosqichlarida Markaziy Osiyo davlatlari bayroqlari yonma-yon turib, mintaqada butunligi, birligi, jipslashganini ko'rsatdi.

“ Bir jihati ta'kidlab o'tish kerak. Hamda yerda ham sportga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilmaydi. Bizning katta yutuq'imiz shuki, Prezidentimiz bevosita sportga qiziqib, uni tushunib, har bir mayda detallarigacha e'tibor beradi. Yilda bir necha marotaba barcha soha vakillari bilan uchrashib, muammolarini o'rganadi. Ayniqsa, keyingi yillarda sportni rivojlantirish borasida bir qancha farmon va qarorlar imzolandi. Har bir sport turini alohida rivojlantirish uchun maxsus dastur tasdiqlandi. Hech bir davlatda bunaqa tajriba kuzatilmagan.

— Parij Olimpiadasida birinchi bor jamoaviy sport turi — futbol bo'yicha qatnashdik. Keyingilarida jamoaviy sport turlari bilan ishtirok etishga qanday tayyorgarlik ko'riyapti?

— Jamoaviy sport turlarida natija ko'rsatish asosiy vazifalarimizdan biri. Qolaversa, bu davlatimiz rahbari tomonidan ham alohida ta'kidlab kelinadi.

Haqiqatan, Olimpiadada jamoaviy sport turi bilan ishtirok etish sharaflidir. Bizda buning uchun hamma imkoniyat yetarli. Biz Olimpiadaga tayyorgarlik ko'rish davrida andoza sifatida millionlar o'yini — futbol bilan ishlashni boshladik. Bu borada xorij tajribasini o'rgandik. Sport vazirligi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi va soha mutaxassislari bilan fikrlashib, "Olimpik" jamoasini tashkil etdik. Jamoa yil davomida muntazam o'yin amaliyotiga ega bo'lib, ulkan tajriba oshirdi.

Bunda bir jamoa sifatida yagona taktika asosida tayyorgarlik ko'rish asosiy mezon bo'ldi va o'z natijasini berdi. Futbolchilarimiz yosh bo'lishiga qaramay, 2022-yil Toshkentda bo'lib o'tgan U-23 Osiyo kubogida va joriy yil tengqurlari orasida Doha mezbonlik qilgan ayri shu yoshdagi musobaqaning finaliga qadar yetib

Qardoshlik rishtalari

“O'ZBEKISTONNI ULUG' MUHABBAT BILAN SEVAMIZ”

Safar odamning umriga, ko'ngliga, Yaratgan tomonidan kaftga bitilgan chiziq'larga o'xshasa kerak. Uzun-qisqa bu chiziq'lar haqida turli talqinlar to'g'ri, lekin ularni hech qachon o'qiy olmaymiz. Bir qarasaq, ularning orasi yaqin, yana bir qarasaq, yetish uzoqday tuyuladi. Shu olis va yaqin manzillararo birda oson, birda qiyin, birda yaxshi, birda yomon bilan ko'z ochib yumguncha, umr o'tib ketar ekan...

DO'STLIK RAMZIGA AYLANGAN MAKTAB

Irodaxon bir yig'lab, bir kulib gapirar ekan, olisdan O'zbekiston bayrog'i ko'rindi. Yuragimiz hapqirib ketdi, ikki kunda ona yurtimizni qanchalar sog'inganimizni his qildik. Bu — Fuzuliy shahridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi maktab. Ozarbayjon bayrog'i yonida mag'rur hilpirayotgan O'zbekiston bayrog'i biz uchun Vatan timsoli edi. Maktabning nomi ham ozar, ham o'zbek tilida yozilganini ko'rib, ko'zimizga beixtiyor yosh keldi. Biz bugun bu qutlug' maskanda ta'lim olayotgan bolalar orasidan orzulari osmonlarga tutashgan falakiyotshunoslar, olimlar, ijodkorlar, eng asosiy, haqiqiy vatanparvarlar, fidoyilar chiqishiga ishonamiz.

Peshtoqida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turgan Mirzo Ulug'bek nomidagi maktab dahshatli urush qirg'inlarini boshdan kechirib, jangog'hlardan omon chiqqan, urushdan keyingi tiklanish mashaqqatlarida irodasi bukilimgan, qochoqlik, ochlik nima ekanini o'z ko'zi bilan ko'rgan Fuzuliy shahringan ko'rki, iftixori bo'lib, uzoqdan ko'zga tashlanadi. Unda bedor qalbi ona tuproq ishq'i bilan yongan, vatan ozodligi va erki uchun kurashgan fuzuliyliklarning dilbandlari ta'lim olmoqda.

Bizni maktab direktori Hojarxonim Mahmudova mehri tabassum bilan kutib oldi. Pedagogik jamoa bilan tanishtirar ekan, yig'ildi qizargan ko'zimizga qarab, bunday dedi:



Halkar HAMROYEVA,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Ikki yil muqaddam Ozarbayjondagi "Ziyoli o'chog'i" xalqaro adabiy uyushmasi bilan tanishgan edim. O'shanda nihoyatda sokin Boku shahri, tepasida chag'alaylar charx urmasa-da, kumushrang mavjlari bilan o'ziga rom qilgan Kaspiy dengizi, bolaligimda kezzanim ko'hna Registeronning jin ko'chalarini eslatadigan Ichkeri shahar juda katta taassurot qoldirgan edi. Shuning uchun ham bu yil bahoming boshlarida Ozarbayjon davlat pedagogika universitetida bo'ladigan xalqaro anjumangacha taklif qilishgach, salomatligim bir oz yomonlashgan bo'lsa ham borishga qaror qildim. Sababi o'sha kunlari Bokuda O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

Erkin Vohidovning "So'z latofati" kitobining ozar tilidagi tarjimai taqdimoti o'tkazilishidan xabar topdim. Bu kitobga mehrim yo'l azobini yengishimda dalda edi.

Ozarbayjon davlat pedagogika universitetida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yuqori saviyada o'tdi. Shveysiya, Turkiya, Qirg'izistondan kelgan olimlar, ijodkorlar bilan tanishdik. Anjumanda universitet prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Mohira Huseynova turkiy tili xalqlar muloqot maydoni kengayishida ilm-fan, adabiyot va san'atning o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidladi.

— Bizni yaqinlashtiradigan, do'stligimizni mustahkamlaydigan rishtalardan yana biri "Mahmud Koshg'ariy" nomli xalqaro ilmiy jumaldir, — dedi filologiya fanlari doktori, professor, universitet huzuridagi Turkologiya markazi rahbari Mirvari Ismaylova. — U qalb qishi singari dunyo uzra parvoz qilib, durdona turkiy tili muzimning yangi-yangi qirralarini kashf qilmoqda.

Xalqaro konferensiyasi doirasida, shuningdek, Bokuda chop etilgan "Xorazm "Lazgi" raqsi — o'zbek milliy san'atining durdonasi", "Sirdaryoning sirli "Savat"lari" monografiyalari taqdimoti o'tkazildi. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, xalq artisti Gavhar Matyoqubova, O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori Ra'no Sayfullayeva, kamina, Guliston shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi Bamo Xoliqova tilshunoslik va san'atshunoslik sohasidagi tadqiqotlari uchun turkiy tili xalqlar "Yilning eng yaxshi olimi" nominatsiyasi, "Nihol" davlat mukofoti sovrindori Dilnoza Ortiqova, Mukarrama Turg'unboeva nomidagi Xalqaro raqs tanlovi Gran-pri sohibasi Dilnoza Mavlonova, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Risolat Sapayeva "Yilning eng yaxshi yosh olimi" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.



TOG'LI QORABOG' SARI YO'L

Ertasi kuni tongda a'lo kayfiyatda azim tog'lar o'lakasi tomon yo'lga chiqdik. Mirzo Ulug'bek nomidagi maktabga tezroq yetish maqsadida qirlar o'rtidan mo'ralashga hozirlik ko'rayotgan quyosh chiqishini orziqib kutardim.

— Tog'li Qorabog'dagi bu mo'jaz shaharga 1959-yili ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy nomi berilgan. Urushgacha shaharda 17 mingdan ziyod odam yashardi. Tog'lar bag'ridagi so'lim maskan 1993-2020-yillarda urush va o't ichida qoldi. Odamlar shaharni tark etdi. Uylar, masjidlar, hatto qabrstonlar vayronaga aylantirildi. Ulug' shoir haykaliga ham shikast yetkazildi. 2020-yil 17-oktabrda shahar to'liq ozod etildi. Odamlar birin-ketin kindik qoni toman qadrdon go'shaga qayta boshladi, — deydi "Ziyali o'chog'i" xalqaro adabiy uyushmasi rahbari, xalqaro anjumanlar tashkilotchisi Iloha xonim jilmayib.

Bugun shaharda 4 mingga yaqin kishi yashaydi. Urushdan keyin ko'p qavatli uylar, poliklinika va do'konlar qurildi. O'zbekiston hukumati birinchilardan bo'lib yordamga oshiqdi. Fuzuliyliklarga 960 o'rinni zamonaviy maktab binosi qurib berildi. Borganda o'zingiz ko'rasiz, fuzuliyliklarning o'zbek xalqiga, O'zbekistonga muhabbati juda yuksak. Tug'ishgan jigarlaridek yaxshi ko'rishadi.

Tog'li Qorabog'ga kelguncha urush fojialarini faqat kitoblar va filmlar orqali bilardim. Urushning haqiqiy dahshatlariga birinchi marta Tog'li Qorabog'da duch keldim. Osmonga tutash purqir tog'lar salobot to'kib turibdi, tabiat go'zal. Lekin atrofini kuzatib, zavqlanishga kuchim yetmadi. Tinch zamonda tabiat go'zalliklariga dog' bo'lib turgan



xarobalar, katta qorakuyadek qotib qolgan daraxtlar, yonib kultepaga aylangan uylarni ko'rish azob edi.

— O'sha kunlarni hech ham eslagim kelmaydi. Lekin unutishning iloji yo'q, — deydi yo'lboshlovchimiz, tarjimon, filolog olim Irodaxon. — Biz 30 yil o't ichida yashadik. Eng achinarlisi, shahid ketgan harbiylar orasida oddiy fuqarolar ham bor edi. Vatan ozodligi uchun kurash umumimilliy safarbarlikka aylandi. Ko'pchilik yosh bolali qo'shinalarimiz qo'lga ilingan kiyim-kechagini olib, tug'ilgan shaharini, uy-joyini, ro'zg'orini tashlab ketishga majbur bo'ldi. O'shanda onasining quchoq'ida ochlik va suvsizlikdan nobud bo'lgan chaqaloqlarni ko'rganman. Ona sutiga to'yumagan go'daklar ham adolatsiz, shafqatsiz urush qurbonlari edi. Ular tirik bo'lganida tengdoshlariga qo'shilib, keng va

yorug' Mirzo Ulug'bek nomidagi maktabda o'qiyotgan bo'larmidi? Biz dunyoning uzoq yillik urush va mojarolari tinmagan o'lakasi bo'lib qoldik. "Ziddiyatli mintaqada" nomi ostida yashadik. "Do'st og'ir kuningda bilinadi" degan o'zbek maqolini juda yaxshi ko'raman. Birodar o'zbek xalqidan nihoyatda minnatdormiz. O'zbekiston hukumati birinchilardan bo'lib yordam qo'lini cho'zdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mintazam ravishda insonparvarlik yordami kelib turdi, vayronaga aylangan shaharda yangi maktab binosi qurilishi boshlandi. O'shanda bu qurilish faqat fuzuliyliklar emas, bu — lochinliklar ko'ngliga ham ilk umid uchunlarini uyg'otdi. Tug'ilgan go'shasiga kelishga yuragi betlamayotgan odamlar maktab qurilishi haqida xabar tarqalishi bilan otilasini olib, Fuzuliyga qaytdi.



— 2023-yil 22-avgustda maktabimizning ochilishida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev rafiqalari bilan ishtirok etdi. Marosim haqiqiy bayramga aylandi. Fuzuliy shahridagi maktabga buyuk o'zbek qomusiy olimi, falakiyotshunos Mirzo Ulug'bek nomi berildi.

Bizni o'zbek xalqi bilan urf-odatlarimizdagi yaqinlik, milliy qadriyatlarimiz, insoniy munosabatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik

birlashtirib turibdi. O'quvchilarimizni O'zbekistonga — Samarqandga olib bormoqchimiz. Ulug' Amir Temur hazratlarining, barcha davrlarning buyuk olimi, falakiyotshunos, alloma Mirzo Ulug'bekning izi qolgan ko'hna shaharni, u qudrirgan rasadxonani ko'rish orzusidamiz. Maktabimizning Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalishi biz uchun sharaf. Kelajakda navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, ulug'bekxonlik o'qishlarini tashkil qilish niyatimiz bor.

Hojarxonim bizni kutubxona, fan xonalari va to'garaklar bilan tanishtirdi. Ikkinchi qavatda joylashgan kutubxona keng, yorug'. Kitoblar va internetdan foydalanish, bemaol dars tayyorlash uchun barcha qulaylik yaratilgan. Yangi adabiyotlar chiroyli javonlarga terilgan. Ularni bir-bir varaqlab, ko'nglimiz yorishdi. "Temur tuzuklari", "Alpomish", "To'rt ulus tarixi", "Xamsa", "Boburnoma", "O'tkan kunlar", "Ijodni anglash baxti", "O'zbekim" kabi o'zbek tilidagi kitoblar ko'zimizga oloddek ko'rindilar. Ular oddiy kitoblar emas, balki buyuk ma'naviyat va ma'rifat mahsullaridir. Biz olib borgan kitoblar ular safga qo'shildi.

O'QUVCHILARIMIZ TEMURIYLAR TARIXIGA JUDA QIZIQADI

Keyingi manzilimiz Lochin shahri edi. Qirlar, adirlar, quyuq daraxtlar bag'ridagi shahar nihoyatda so'lim va ko'rkam. Ulkan daraxtlar qurshovidagi 2-maktab binosi mashinalar o'tayotgan yo'ldan hatto ko'rilmaydi ham. Ilm maskanida bizga ochiq chehra bilan peshvoz chiqishdi. Mehmonlar O'zbekistondan ekanini eshitib, yaqin atrofdagi o'quvchilarning ota-onalari ham kelibdi. Maktab o'quvchilari esa biz, mehmonlar uchun chiroyli qo'shiq va raqslardan iborat dastur tayyorlabdi.

— O'zbekistonni ulug' muhabbat bilan sevamiz, — deydi maktab direktori Sevinchxonim Jabborova. — 30 yillik urushning uqubatlari kunlarida oljanab o'zbek xalqining hamdardligini hamisha his qilganmiz. O'zbekiston hukumati tomonidan qurilib, Fuzuliy shahriga hadya qilingan maktab binosi faqat fuzuliyliklarga emas, balki butun ozarbayjon xalqiga ulkan dalda bo'ldi. Qaytadan oyoqqa turishning, vayronaga aylangan shaharni tiklashning o'zi bo'lmas ekan. Eng og'ir kunlarimizda o'zbek xalqi birinchi bo'lib do'stlik qo'lini, mehrini uzatdi. Biz o'quvchilarimizni bir necha marta Mirzo Ulug'bek nomidagi maktabga

olib bordik. O'zbekiston Prezidentining oliy himmati farzandlarimiz uchun ibrat maktabidir. Ular O'zbekistonga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, umuman, temuriylar tarixiga juda qiziqib qoldi. Maktabimizda 112 o'quvchi tahsil oladi. Ularning o'ziga chehra bilan peshvoz chiqishdi. Ular qurshovida, bolalar yomonlikni tez unutadi deb o'ylaymiz. Ba'zan darsning o'tasida xo'rsiniq eshitiladi. Sekin ko'zi to'la yosh bolaning oldiga borib boshini silasangiz, tushida urush ko'rganini aytdi. Tasalli berishga, yupatishtiga so'z topolmay qolaman. Biz o'quvchilarimiz urush dahshatini tezroq unutishini xohlaymiz. Asosiy e'tiborimiz, harakatlarimiz o'quvchilarimizga chuqur bilim berishga, ularning murg'ak qalbidagi urush jarohatlarini davolashga qaratilgan. Hali-hamon uy-joylarini tashlab ketishga majbur bo'lgan yurtdoshlarimizning Lochinga qaytishi davom etmoqda. Muhimi, yurtimiz tinch, osmonimiz masaffo. Yonimizda O'zbekistondan qadrdonimiz, o'zbek xalqidek mehribonlarimiz bor. Men ishonaman, vaqti kelib, Ulug'bek maktabi o'quvchilari o'tkir qalam va chuqur tafakkur ila eng yuksak ilmlar sirlarini va san'atlar nafosatini egallaydi.

Yaratganning qudrati bilan ko'nglimga bir ilohiy go'zallik sizib kira boshladi: Ozarbayjon safari, Boku, Tog'li Qorabog'dagi Fuzuliy, Lochin shahri, tepasida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turgan buyuk qomusiy olim Mirzo Ulug'bek nomidagi maktab, Lochin shahridagi maktab — hamma-hammasi Fuzuliyning devonidek muhtasham va mo'tabar...



tadbirlarimizni, yangi kitob taqdimotlarini shu yerda o'tkazamiz, — deydi Hojarxonim.

— "O'zbek madaniyati markazi" dan bizga ham joy ajratsangiz, — deydi atog'li san'atkorimiz Gavhar Matyoqubova. — Ruxsat bersangiz, biz "Xorazm "Lazgi" raqsi" burchagini hijozlab berardik. Xorazmcha liboslar, bezaklar, taqinchoqlar hamda insoniyatga hayotsevarlik, ko'tarinki kayfiyat, olam-olam zavq ulashuvchi "Lazgi" raqsi haqidagi ilmiy tadqiqotlarimiz aks etgan monografiyalari, o'quv qo'llanmalar va lug'atlar, milliy buyimlar hadya qilmoqchimiz. O'quvchilarimiz raqsga qiziqib qolsa, shogirdlarimiz mahorat darsi o'tib berishga hamisha tayyormiz.

Mezbonlar bu taklifni mamnuviyat bilan qabul qildi.

SAFAR SO'NGIDAGI O'YLAR

Muhammad Fuzuliyning "Punbai dog'i junun ichra..." deb boshlanuvchi g'azali "Vatanimdur, vatanimdur, vatanimdur, vatanim" so'zlari bilan yakunlanadi. Fuzuliy shahridan ketish juda og'ir kechdi, orqamga qaray-qaray, zo'rg'a xayrlashdim. Maktab darvozasi oldida o'quvchilarning ota-onalari bilan uchrashib qoldik. Ular O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubovani tanib, "Gauxarxanum! Lazgi", deya o'rab olishdi. Sakinaxonim ismli yoshi kattaroq ayol o'tgan yili Bokuda bo'lib o'tgan Xalqaro turizm yarmarkasida Dilnoza Ortiqova ijrosidagi "Lazgi" raqsidan hayratga tushganini, o'shandan beri o'zbek san'ati, Xorazm tarixi, UNESCO ro'yxatiga kiritilgan "Lazgi" turkumi, professor Gavhar Matyoqubovanning ilmiy-ijodiy faoliyati bilan qiziqib qolganini shoshib-pishib gapira boshladi. Guruhimiz rahbari, jurnalist va tarjimon Asrorjon Aliyorov qo'li-qo'lga tegmay, ularni suratga olardi. O'zbekiston tomonidan Ozarbayjonga hadya etilgan, peshtoqida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turgan, buyuk vatandoshimiz Mirzo Ulug'bekning tabarruk nomi bilan ataladigan maktab mening yana bitta vatanimga aylangan haqiqat edi. Bu nurlu maskanda yuragimning bir parchasi qolayotgandi. Yaratganning qudrati bilan ko'nglimga bir ilohiy go'zallik sizib kira boshladi: Ozarbayjon safari, Boku, Tog'li Qorabog'dagi Fuzuliy, Lochin shahri, tepasida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turgan buyuk qomusiy olim Mirzo Ulug'bek nomidagi maktab, Lochin shahridagi maktab — hamma-hammasi Fuzuliyning devonidek muhtasham va mo'tabar... Fuzuliyliklarning O'zbekistonga, o'zbek xalqiga, Prezidentimizga muhabbati, ixlosi, duolari Fuzuliyning devonidek go'zal va munavvardir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Sunvonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy